

**INTEGRAL ASSESSMENT OF THE EFFICIENCY OF
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS IN
UZBEKISTAN'S FOOD INDUSTRY**

Tursunova Dilnavoz Davron qizi

2nd-year Doctoral Researcher (PhD Student) Tashkent State University of Economics

Abstract

This article examines the issue of integral assessment of the effectiveness of the organizational and economic mechanism in the food industry of Uzbekistan. The study analyzes production volume, investment, export-import indicators, and functional gaps within the sector. The results show that although the industry demonstrates quantitative growth and increasing investment activity, these processes do not always fully translate into deeper processing, higher value added, and export efficiency. Therefore, the article substantiates the need to assess the efficiency of the food industry based on the interrelation of raw materials, processing, investment, logistics, and market mechanisms.

Keywords

food industry, organizational and economic mechanism, integral assessment, investment efficiency, depth of processing, logistics, export, value added.

**O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATIDA TASHKILIY-IQTISODIY
MEXANIZM SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH**

Tursunova Dilnavoz davron qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini integral baholash masalasi o'rganilgan. Tadqiqotda ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, eksport-import ko'rsatkichlari va tarmoq ichidagi funksional uzilishlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tarmoqda hajmiy o'sish

va investitsiya faolligi mavjud bo'lsa-da, ular har doim ham chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymat va eksport samaradorligiga to'liq aylanmayapti. Shu sababli oziq-ovqat sanoati samaradorligini xomashyo, qayta ishlash, investitsiya, logistika va bozor mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi asosida baholash zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar. Oziq-ovqat sanoati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, integral baholash, investitsiya samaradorligi, qayta ishlash chuqurligi, logistika, eksport, qo'shilgan qiymat.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос интегральной оценки эффективности организационно-экономического механизма в пищевой промышленности Узбекистана. В исследовании проанализированы объем производства, инвестиции, экспортно-импортные показатели, а также функциональные разрывы внутри отрасли. Результаты показывают, что, несмотря на количественный рост отрасли и повышение инвестиционной активности, эти процессы не всегда в полной мере переходят в углубленную переработку, создание высокой добавленной стоимости и рост экспортной эффективности. В связи с этим в статье обоснована необходимость оценки эффективности пищевой промышленности на основе взаимосвязи сырьевого обеспечения, переработки, инвестиций, логистики и рыночных механизмов.

Ключевые слова: пищевая промышленность, организационно-экономический механизм, интегральная оценка, инвестиционная эффективность, глубина переработки, логистика, экспорт, добавленная стоимость.

Kirish

Oziq-ovqat sanoati har qanday mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu tarmoq nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi, balki qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat mahsulotiga

aylantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ichki bozor barqarorligini saqlash va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan xomashyo bazasi, ichki iste‘mol bozori va mehnat resurslari mavjud. So‘nggi yillarda tarmoqda ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2018-yildagi 25,3 trln so‘mdan 2024-yilda 102,7 trln so‘mgacha yetgan. Bu o‘shish tarmoqda iqtisodiy faollik kuchayganini ko‘rsatadi.¹

Biroq ishlab chiqarish hajmining ortishi har doim ham tarmoq samaradorligi oshganini anglatmaydi. Agar xomashyo chuqur qayta ishlanmasa, investitsiya yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan yo‘nalishlarga yo‘naltirilmasa, logistika va sovuq zanjir yetarli rivojlanmasa, ishlab chiqarishdagi o‘shishning iqtisodiy samarasi cheklangan bo‘lib qoladi.

Shu sababli oziq-ovqat sanoatini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi yoki investitsiya miqdoriga qarash yetarli emas. Tarmoq samaradorligini xomashyo ta‘minoti, qayta ishlash quvvatlari, investitsiya qaytimi, logistika, eksport natijadorligi va yuqori qo‘shilgan qiymat ulushi bilan birgalikda baholash zarur. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini integral yondashuv asosida baholashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda oziq-ovqat xavfsizligi, ishlab chiqarish samaradorligi, investitsiya faolligi, logistika tizimi va qo‘shilgan qiymat yaratish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilar E.R. Wedowati, M.L. Singgih, I.K. Gunarta oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish va operatsion boshqaruv masalalariga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlar.

e'tibor qaratgan bo'lsa, M.N.O. Sadiku, S.M. Musa va T.J. Ashaolu tarmoqda texnologik modernizatsiya, innovatsiya va mahsulot sifatini oshirishning ahamiyatini asoslagan.²

Shuningdek, M. De Clercq, A. Vats va A. Biel tomonidan ilgari surilgan "Agriculture 4.0" yondashuvida oziq-ovqat tizimlarida raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar asosida boshqaruvning o'rni ta'kidlanadi.³ J.M. Katajajuuri, R. Akkerman va N.H.M. Yasin tadqiqotlarida esa oziq-ovqat zanjiridagi yo'qotishlar, saqlash va logistika tizimining samaradorlikka ta'siri yoritilgan.⁴ Ushbu yondashuvlar oziq-ovqat sanoatida natija faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki qayta ishlash, saqlash, yetkazib berish va bozor bilan bog'liq jarayonlarning uyg'unligi orqali shakllanishini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlardan B.B. Berkinov, N. Maxmudov, O.A. Abduganiyev, X.P. Abulqosimov, B.E. Mamaraximov, D.N. Saidova, T.S. Rasulov va I.B. Rustamova ishlarida oziq-ovqat sanoati, agrar sektor, investitsiya samaradorligi, eksport salohiyati va sanoat boshqaruvi masalalari tadqiq etilgan.⁵ Biroq mavjud adabiyotlarda oziq-ovqat sanoatidagi ishlab chiqarish, investitsiya, logistika va eksport jarayonlarini yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida bog'lab, ularning umumiy samaradorligini integral baholash masalasi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

² Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K. Production System in Food Industry: A Literature Study // 6th International Conference on Operations and Supply Chain Management. – Bali, 2014; Sadiku M.N.O., Musa S.M., Ashaolu T.J. Food Industry: An Introduction // International Journal of Trend in Scientific Research and Development. – 2019. – Vol. 3, Issue 4. – P. 128–130.

³ De Clercq M., Vats A., Biel A. Agriculture 4.0: The Future of Farming Technology. – Dubai: World Government Summit, 2018.

⁴ FAO. Global food losses and food waste: Extent, causes and prevention. – Rome: FAO, 2011; World Bank. Enabling the Business of Agriculture / Agribusiness and food logistics materials. – Washington, DC: World Bank.

⁵ Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va yo'nalishlari. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 152 b.; Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. – T.: O'zFA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2016. – 258 b.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini baholash uchun statistik ma’lumotlarning dinamik tahlili, taqqoslama tahlil, tizimli yondashuv va integral baholash usullaridan foydalanildi. Oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, eksport-import ko‘rsatkichlari, kapital samaradorligi, tannarx bosimi va qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi. Integral baholash jarayonida xomashyo ta’minoti, qayta ishlash quvvatlari, investitsiya samaradorligi, logistika infratuzilmasi, eksport natijadorligi va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi asosiy mezon sifatida olindi. Tahlil natijalari asosida tarmoqdagi funksional uzilishlar aniqlanib, ularning oziq-ovqat sanoati samaradorligiga ta’siri mantiqiy umumlashtirish orqali baholandi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati so‘nggi yillarda iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarmoqda ishlab chiqarish hajmi, investitsiya faolligi va eksport ko‘rsatkichlari o‘sib bormoqda. Biroq bu o‘shish har doim ham chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish va eksport samaradorligining oshishi bilan bir xil darajada kechmayapti. Shu sababli oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini faqat ishlab chiqarish hajmi orqali emas, balki tashkiliy-iqtisodiy mexanizm elementlarining o‘zaro bog‘liqligi orqali baholash zarur.

Dissertatsiyada oziq-ovqat sanoati samaradorligini baholashda resurs, quvvat, kapital, texnologiya, logistika, eksport va qo‘shilgan qiymat o‘rtasidagi birgalikdagi ta’sir muhim ekani asoslangan. Agar ushbu zanjirdagi biror bo‘g‘in zaif ishlasa, umumiy samaradorlik ham pasayadi. Masalan, investitsiya hajmi ortgani bilan logistika tizimi yetarli rivojlanmasa yoki qayta ishlash quvvatlari to‘liq ishlamasa, kutilgan iqtisodiy natija shakllanmaydi.

1-jadval. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi⁶

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich holat	Yakuniy holat	Iqtisodiy talqin
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	25,3 trln so‘m, 2018-yil	102,7 trln so‘m, 2024-yil	Tarmoqda hajmiy o‘shish mavjud, ammo bu o‘shish sifatli qayta ishlash bilan to‘liq uyg‘unlashmagan
Oziq-ovqat sanoatiga investitsiyalar	2685,5 mlrd so‘m, 2018-yil	15254,1 mlrd so‘m, 2025-yil	Kapital oqimi oshgan, lekin investitsiya samarasi barcha segmentlarda bir xil emas
Xorijiy investitsiya va kreditlar	275 mlrd so‘m, 2018-yil	12271 mlrd so‘m, 2025-yil	Tarmoqning investitsion jozibadorligi oshgan
Eksport hajmi	1,0 mlrd AQSH dollari, 2018-yil	2,9 mlrd AQSH dollari, 2025-yil	Eksport o‘smoqda, ammo yuqori qayta ishlangan

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar va tashqi savdo ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

			mahsulotlar ulushi yetarli emas
Import hajmi	1,2 mlrd AQSH dollari, 2018-yil	4,4 mlrd AQSH dollari, 2025-yil	Ayrim tayyor mahsulotlar va ingredientlar bo'yicha tashqi bog'liqlik saqlanmoqda


Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi va investitsiyalar sezilarli darajada oshgan. Bu, bir tomondan, tarmoqda ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayayotganini bildiradi. Ikkinchi tomondan esa import hajmining ham oshib borishi ichki ishlab chiqarish hali barcha talab segmentlarini to'liq qoplay olmayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuqori qayta ishlangan, qadoqlangan, eksportga mos va standartlashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjud.

Moliyaviy natijalar tahlili tarmoq ichidagi farqlarni yanada aniq ko'rsatadi. Ichimliklar ishlab chiqarish segmentida foyda hajmi nisbatan barqaror o'sib borgan. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishida esa ayrim yillarda moliyaviy natijalar keskin o'zgaruvchan bo'lgan. Xususan, 2023-yilda yirik korxonalar bo'yicha zarar shakllangani ishlab chiqarish hajmi oshishi har doim ham rentabellikni ta'minlamasligini ko'rsatadi. Bu holat xomashyo, energiya, transport va logistika xarajatlari foyda shakllanishiga kuchli ta'sir qilayotganini anglatadi.

Tannarx ko'rsatkichlari ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Tijorat korxonalarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxi 2018-yildagi 4,8 trln so'mdan 2024-yilda 21,7 trln so'mgacha oshgan. Kichik korxonalarda esa tannarx dinamikasi yanada tezroq o'sgan. Bu kichik ishlab chiqaruvchilar xomashyo, energiya va logistika

xarajatlariga ko‘proq bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Demak, tarmoqda ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga xarajatlarni kamaytirish va qiymat zanjirini samarali tashkil etish ham muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

1-rasm. Oziq-ovqat sanoatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini shakllantiruvchi zanjir⁷



Mazkur sxema oziq-ovqat sanoatida samaradorlik birgina omil orqali emas, balki bir nechta bo‘g‘inlarning ketma-ket va uyg‘un ishlashi orqali shakllanishini ko‘rsatadi. Agar xomashyo bazasi mavjud bo‘lsa-yu, qayta ishlash quvvatlari yetarli ishlamasa, mahsulot past qo‘shilgan qiymat bilan sotiladi. Agar investitsiya kiritilsa-yu, logistika va sovuq zanjir rivojlanmasa, mahsulot yo‘qotishlari oshadi. Agar eksport bozorlari mavjud bo‘lsa-yu, sertifikatlash va sifat talablari bajarilmasa, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik cheklanadi.

⁷ Muallif tomonidan oziq-ovqat sanoatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini baholash indikatorlari asosida ishlab chiqilgan.

Integral baholash natijalari oziq-ovqat sanoatida asosiy muammo faqat resurs yoki investitsiya yetishmasligida emasligini ko'rsatadi. Aksincha, mavjud resurslar, investitsiyalar, ishlab chiqarish quvvatlari, logistika va bozor imkoniyatlari o'rtasidagi funksional aloqalar yetarli darajada mustahkam emas. Dissertatsiyada qayd etilganidek, funksional uzilishlar bitta blok ichida qolib ketmaydi; institutsional blokda uzilish iqtisodiy rag'batlarning natijaga bog'lanishini zaiflashtiradi, iqtisodiy blokda uzilish ishlab chiqarish modernizatsiyasini sekinlashtiradi, ishlab chiqarishdagi uzilish esa bozor talabiga mos mahsulot yaratishni cheklaydi.

Funksional uzilish koeffitsiyenti bo'yicha hisob-kitoblar ham tarmoqda ichki nomutanosibliklar mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 0,237 ni tashkil etib, ichki iqtisodiy deformatsiya yuqori ekanini bildirgan. 2023-yilda koeffitsiyent 0,265 ga yetib, kritik funksional uzilish holatini ko'rsatgan. 2024-yilda ko'rsatkich 0,211 gacha pasaygan bo'lsa-da, bu hali ham tarmoqda muvofiqlashuv muammolari saqlanib qolayotganini anglatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida hajmiy o'sish mavjudligini, ammo sifatli industrial transformatsiya hali to'liq yakunlanmaganini ko'rsatadi. Tarmoqda ishlab chiqarish hajmi, investitsiya va eksport ko'rsatkichlari oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning o'zaro bog'liqligi yetarli darajada kuchli emas. Shu bois oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda asosiy e'tibor faqat yangi quvvatlar yaratishga emas, balki xomashyo, qayta ishlash, logistika, investitsiya va bozor mexanizmlarini yagona tashkiliy-iqtisodiy tizim sifatida uyg'unlashtirishga qaratilishi lozim.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi, investitsiya va eksport ko'rsatkichlari o'sib bormoqda. Biroq ushbu o'sish har doim ham chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va eksport samaradorligi bilan bir xil darajada kechmayapti. Asosiy muammo resurs yoki

investitsiya yetishmasligida emas, balki xomashyo, qayta ishlash, logistika, investitsiya va bozor mexanizmlarining yetarli darajada uyg'un ishlamayotganidadir.

Integral baholash natijalari oziq-ovqat sanoatida ichki funksional uzilishlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli tarmoq samaradorligini faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki butun qiymat zanjiri bo'yicha baholash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, oziq-ovqat sanoatida investitsiyalarni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga yo'naltirish, logistika va sovuq zanjir infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarda xomashyo yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarini klaster asosida bog'lash zarur. Shuningdek, tarmoqda raqamli monitoring tizimini joriy etish ishlab chiqarish, tannarx, investitsiya samarasi va eksport natijalarini aniq baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi uchun "xomashyo — qayta ishlash — logistika — sertifikatlash — eksport" zanjiri yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida ishlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. 2018–2025-yillar.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar va tashqi savdo ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plamlar. 2018–2025-yillar.
4. FAO, IFAD, UNICEF, WFP and WHO. The State of Food Security and Nutrition in the World 2024. Rome: FAO, 2024.
5. FAO. Global food losses and food waste: Extent, causes and prevention. Rome: FAO, 2011.

6. UNIDO. Agribusiness and agro-industry development: food processing and post-harvest loss materials. Vienna: UNIDO.
7. World Bank. Enabling the Business of Agriculture / Agribusiness and food logistics materials. Washington, DC: World Bank.
8. De Clercq M., Vats A., Biel A. Agriculture 4.0: The Future of Farming Technology. World Government Summit, 2018.
9. Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubtseva E.B. Sovremennyy ekonomicheskiy slovar. Moskva: INFRA-M, 2011.
10. Udaltsova N.L. Organizatsionno-ekonomicheskiy mexhanizm funktsionirovaniya otrasli natsionalnoy ekonomiki // Ekonomicheskiye nauki. 2012. №6(91). S. 94–98.
11. Ashurov Z.A. Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uni takomillashtirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2017. №4.
12. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. Toshkent: O‘zFA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2016.